

Ko'rik-tanlov zavqi bilan

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, "Gidromelioratsiya" fakulteti 1-bosqich talabalari ishtirokida ham "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovini an'anaviy ravishda o'tkazib borilishi yo'lga qo'yilgan. Unda fakultet dekani A.Fatxullaev, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rribbosari O.Habibullaev, D.Allayorov hamda fakultet yoshlar ittifoqi yetakchisi A.Hamidov, fakultetning "Noiloj" jamoasi va talaba-yoshlar ishtirok etishdi.



Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Birinchi tashabbus doirasida yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Fakultet dekani tomonidan "Zakovat" intellektual o'yinida g'olib bo'lgan jamoalarga diplom va sovg'alar taqdim etildi. Yoshlarni Vatanimiz milliy qadriyatlari, tarixiy-ma'naviy merosimizga sadoqatli qilib tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, bo'sh vaqtlarini unumli va sermazmun o'tkazish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash, mahoratini oshirish hamda ularning o'z iqtidorlarini namoyon etishiga ko'maklashish kabi maqsadlarni o'zida mujassam etgan ko'rik-tanlov yuqori saviyada tashkillashtirildi.



TIQXMMI matbuot xizmati